The checklist of promising medicinal plants, which have a specific effect on the function of the thyroid gland, with the available resource base and experience of their uses in scientific or traditional medicine, which will ensure the correction of iodine deficiency states, has been determined and the most appropriate ones will be incorporated into composition of herbal collections (Species) for administration in cases of thyroid diseases.

Conclusions. Further research will be devoted to the study of macro- and microscopic characteristics of components of the developed herbal collections for normalizing thyroid function, which consist of affordable, official and safe herbal substances, their phytochemical composition that will become the basis for the development of quality control methods' draft for these complex phyto-preparations.

DEVELOPMENT OF CRITERIA FOR STANDARDIZATION OF HYPOGLYCEMIC HERBAL FORMULATION

Lysiuk R.M., Shapovalova N.V., Myhlovets D.M.

Danylo Halytsky Lviv National Medical University, Lviv, Ukraine

e-mail: pharmacognosy.org.ua@ukr.net

Actuality. Diabetes is an important socially significant non-infectious disease, the prevalence of which has become epidemic in recent decades. Phytotherapy can provide important support to the standard method of treatment at all stages of diabetes, and at an early stage, it can sometimes replace traditional therapy for a certain time. Patients who actively use phytotherapy need lower doses of insulin and oral hypoglycemic agents.

Purpose of the research. To substantiate the criteria for standardization of the developed hypoglycemic herbal collection.

Objects and methods. Applied methods comprise macroscopical, microscopical, phytochemical techniques. Qualitative detection of active principles was performed by pharmacopoeial techniques. Herb MaRS system of chemical markers when justifying the choice of analytical marker standards for quality control of the developed herbal collection.

Results. The search for herbal substances with hypoglycemic activity on the basis of native to Ukraine official herbal drugs with a sufficient material base has been carried out. When working out the composition and standardization criteria, an ABC analysis of the composition of phytotherapeutic prescriptions has been carried out, the provisions of Herb MaRS have been analyzed, and an *in silico* study has been performed.

The analysis of the obtained PASS results on the components of the developed collection shows that many individual compounds are able to exert a specific pharmacological effect on various links of the pathogenesis of diabetes mellitus. The following mechanisms should be considered particularly important: inhibition of dipeptidyl peptidase; inhibition of α -glucosidase; inhibition of sodium-glucose cotransporter-2; agonism to glucagon-like peptide-1; inhibition of protein tyrosine phosphatase 1B; inhibition of glucose-6-phosphate dehydrogenase.

Recommendations for the use of the developed preventive and therapeutic multicomponent herbal composition with hypoglycemic activity have been presented. The developed herbal product contributes to the normalization of carbohydrate metabolism and lowering the blood sugar level and exerts tonic, choleric and diuretic effects.

The composition of a new preventive and therapeutic multicomponent herbal formulation with hypoglycemic effects has been proposed: common bean, marshmallow, birch, walnut, calendula, sage.

An experimental study of the morphological (identification A) and anatomical characteristics (identification B) of the hypoglycemic formulation's components has been performed and the draft for methods of quality control for the herbal collection has been prepared.

The results of the carried out phytochemical study of the developed formulation, the components of which were collected from wild and cultivated plants in Lviv region, indicate the presence of flavones and flavonols, condensed tannins, alkaloids, coumarins in the analyzed herbal drug. The performed preliminary studies might be a basis for the further choice of appropriate TLC techniques (identification C).

Considering the important contribution of flavonoids and the amino acid arginine into the antidiabetic effect of herbal drugs, the content of arginine and the total amount of flavonoids can be proposed as an optimal option for choosing possible analytical marker compounds of the developed collection of hypoglycemic action (identification D).

Conclusions. The criteria for standardization of the developed hypoglycemic herbal collection, which contains official herbal substances with sufficient resource base in Ukraine, have been substantiated and proposed.

DORIVOR XUSUSIYATGA EGA BO'LGAN AYRIM O'SIMLIKLARNI HIMOYALANGAN TUPROQDA O'STIRISH

Jabborov A., Xudayorova S.I

Toshkent Farmatsevtika instituti, Toshkent Sh.

Ilmiy ishning dolzarblii. Hozirgi kunga keilib farmatsevtika sonoati uchun dorivor o'simliklarga bo'lgan talab ortib borishi sababli o'simliklarni ochiq maydonda yoki tabiiy sharoitda yetishtirish ko'pgina muammolarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Yerdan, suvdan va tuproqdan foydalanish maqsadida olib borilayotgan izlanishlar bugungi kunga kelib xalq extiyoji uchun zarur bo'lgan o'simliklarni ximoyalangan tuproqda (plyonka ostida, parnik va teplitsa sharoitida) ham o'simliklarni yetishtirish mumkunligini taqozo etmoqda. Hammaga ma'lumki tabobatda qo'llaniladigan tibbiy-dori darmonlarning 40-45% o'simliklar dunyosidan ajratib olinadi. Ular o'simliklarning bargi, moyasi, ildizi, tugunagi, gul va urug'laridan tayyorlanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda biz o'simliklar dunyosini har tomonlama chiqurroq o'rgangan holda ularni yetishtirish usullarini ham ishlab chiqishimiz kerak.

Ishning maqsadi. O'simlik hom ashyosi qisqa muddatda o'stirilib, ulardan hom ashyosi va ko'chatlarni tayyorlash uchun himoyalangan tuproqda yaxshi o'sib hosil beradigan o'simlik turlarini aniqlash.

Tadqiqot uslubi va materiallari. Himoyalangan tuproqda dorivor o'simliklarni urug'laridan, ayrimlarini ko'paytirish qulay bo'lganligi sababli ildizlari, tugunaklaridan foydalanildi. Xar bir o'simlikni oila, avlod turlarining nomlari aniqlandi (Flora Uzb:I-VI tom, Caxobiddinov, 1966. Pratov va boshqa 1955.) O'simliklarni biologik hususiyatlarini o'rganishda va tariflashda ilmiy tadqiqot ishlarida qabul qilingan ishlardan foydalanildi (Ignatev 1964). Klassifikatsiya usullari va azolarini morfologik hususiyatlari T.A Rabotnov (1978), A.E Gatsuk (1970) va O.B Cmirnova (1976)

lar taklif etgan terminlar asosida ishlab chiqildi. Urug'idan o'stirish lozim bo'lgan o'simliklarni urug'lari tabiiy sharoitda o'sib pishib yetilgan urug'lardan foydalanildi. Tajribalarni olib borishda o'simliklarni urug'lari va vegetative ko'paytiruvchi o'simliklarni ildizlaridan foydalanildi. Tajribalar mahsus issiq xonlarda (kechalar 16-20° kunduzlari 25-30° xonada) olib borildi. Ekilgan va ko'paytirilgan o'simliklar xar 2-3 kun sug'orib turildi.

Natijalar. Astereceae oilasiga mansub, Celandula officinalis, Matricaria recutita, Pyrethrum corymbosum va Violeceaedan Vilo tricolor urug'lari dan dastlabki nixollar 5-6 kunda o'sib chiqishi, 8-9 kunlarida esa asosiy urug'larning (80-90%) unub chiqishi kuzatildi. 40-45 kun davomida urug'lash protsessi kuzatilmadi. Ko'p yillik o't o'simliklardan: Cannabaceae oilasidan Saponaria officinalis, Lamiace oilasidan Mentha piperita, Melissa officinalis; Apocynaceae oilasidan Vinca minor va Vinca major; Violaceae oilasidan Viola tricolor; Polygonaceae oilasidan Rumex acetosa o'simliklari ustida olib borilgan tajribalarning natijalari shuni ko'rsatdiki: Vinca minor va Vinca major o'simliklarda dastlabki ekilgandan keyin 20-22 kunlari gullarni ochilganligi aniqlandi. 28-30 kunlari esa Potentilla erecta, Lindelopia macrostyla o'simliklari qiyg'os gullashi aniqlandi.

Xulosa. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, himoyalangan tuproqda ekib o'stirilgan o'simliklarni urug'larini unuvchanligi qisqa muddatda 90-95% gacha unib chiqishi aniqlandi. Bir va ko'p yillik o'simliklarda vegetatsiya davrining uzayishi natijasida ularda ko'proq miqdorda urug'larni yetilishi, yer ustki massasining ko'payishi shu bilan birga vegetativ usulda tezroq ko'payishiga imkon yaratildi.

ECHINACEA PURPUREA (L) MOENCH ISTIQBOLLI DORIVOR O'SIMLIK

Ergasheva N.A.

Guliston davlat universiteti, Guliston shahri, O'zbekiston Respublikasi.
e-mail: nilufar.ergasheva16@gmail.com

Bugungi kunda dunyoda aholi sonining oshishi munosabati bilan farmasevtika sanoatida kimyoviy sintez yo'li bilan olingan va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan dori vositalari etarli miqdorda ishlab chiqarilayotganligiga qaramasdan, dorivor o'simliklar asosida tayyorlangan dori vositalariga ehtiyoj yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli, dori-darmon ishlab chiqarishda foydalaniladigan dorivor o'simliklar turlari sonini ko'paytirish, mahalliy florada mavjud bo'lgan yoki o'zga hududlar florasiiga mansub istiqbolli dorivor o'simliklarni tanlash, ular xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojlarni introdusent o'simliklar hisobiga qondirish, o'simliklarni turli tuproq-iqlim sharoitida etishtirishning samarador usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Turli xil kasalliklarga qarshi inson imunitetini ko'taruvchi tabiiy dori vositalarini tadbig' etish davr talabidir. Immun tizimini kuchaytiruvchi va virusga qarshi xususiyatga ega bo'lgan indrodusentlar qatoriga kiruvchi o'simliklardan biri *Echinacea purpurea (L) Moench* o'simligidir.

Asteraceae oilasiga mansub xorij xalq tabobatida qadimdan ma'lum bo'lgan shifobaxsh o'simlik *Echinacea purpurea (L) Moench* Shimoliy Amerika mintaqasidan 300 yil oldin Evropa mintaqasiga manzarali o'simlik sifatida kirib kelgan va Amerika aholisi exinasiani «purple coneflower» - «g'uddachali pushti gul» nomi bilan atashgan. Birinchi bo'lib aborigenlar bu o'simlikdan oddiy shamolashdan tortib to ilon chaqqanda dorivor malham sifatida foydalangan. XVIII asr oxiri va XX asr boshlarida Amerikada bu o'simlikning farmasevtik xususiyatlari to'liq o'rganilib, undagi mavjud moddalarning xiligi boshqa dorivor o'simliklarga nisbatan ancha yuqori bo'lganligi sababli uni "Pre-riya hadiyasi" deb atashdi.

Xozirda dunyo farmasevtikasida *Echinacea purpurea (L) Moench* dan olingan ekstraktlar inson organizmida zaxarli kimyoviy moddalarning to'planishida; xujayralarda radiasiyalarning ionlanishida; uzoq vaqt kimyoterapiya va ultrabinafsha nurlari dan foydalanish natijasida organizmning zo'riqishi-

da, kuchli antibiotiklar qabul qilinganda immun tizimini tiklovchi preparat sifatida keng qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda Mirzacho'l sharoitida *Echinacea purpurea (L) Moench* o'simligi o'stirilib, uning biologik xususiyatlari o'rganilmoqda. Olingan natijalarga ko'ra exinasiyaning birinchi va ikkinchi yil ontogenetizza o'rtacha balanligi 90-160 sm. ni tashkil qildi. O'qildiz sistemasiga ega bo'lib, uning rivojlanishida qisa ildizpoyava unga birikan ikkilamchi mayda ildizyaalar yaxshi shakilandi. Ildizoldi barglari to'q yashil, dag'al, yaxshi tomirlangan, uzun bandli, barg plastinkasi (kengligi 10-16, uzunligi 20-28 sm.) tuxumsimon shakilda bo'lib, yirik to'pbargni tashkil qiladi. Exinasiya ontogenetizing birinchi yilida faqat verginil fazada bo'lib kamdan kam xolatda generativ fazaga o'tadi, ya'ni bu ko'rsatkich 4% tashkil qilsa, ontogenetizing ikkinchi yilida 100% gullash jarayoni kuzatiladi. Va bu davr 12-21 may oylarida gul navdalarning shakillanishi bilan boshlanib, g'unchalash davri iyun oyining 5-15 kunlariga, gullashning boshlanishi, iyun oyining ikkinchi dekadasiga, yalpi gullash jarayoni iyulning 6-22 kunlariga to'g'ri kelib to kech kuzgacha, ya'ni birinchi sovuq kunlargacha gullashi davom etadi. Dastlabki urug'larning pishib etilishi 5-12 chi sentyabr oyiga to'g'ri kelib, 1000 ta urug'ning og'irligi 4,5-5g.ni tashkil qildi. E. purpurea dan xom ashyoni terib olish bosqichi (dorivor xom ashyo uchun butun o'simlikni yig'ish) asosan yalpi gullash jarayoning oxirida amalga oshiriladi. Ushbu davrda hayotning ikkinchi yilidagi o'simliklar maksimal hosliga va umumiy og'irlilik va uning sifatining eng yaxshi nisbatiga teng bo'ladi.

Olingan natijalardan shuday xulosaga kelish mumkinki, Mirzacho'l sharoitida ilk bor istiqbolli dorivor o'simlik bo'lgan *Echinacea purpurea (L) Moench* biologiyasi o'rganildi va noqulay sharoitga morfo-biologik moslanish: qurg'oqchilikka, yuqori haroratga va sho'rga chidamiylik darajalari bo'yicha baholananishiga zamin yaratildi.

EVROPA ZAYTUNI (OLEA EUROPEAE) O'SIMLIGINING SHIFOBAXSHLIGI

Xamrayeva N.T., Mamadaliyeva E.Sh

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax shaxri, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: nafisa.eshankulova@gmail.com

Evropa zaytuni (*olea europeae*) zaytundoshlar oilasiga mansub o'simlik bo'lib, oilaning 600 turi ma'lum. Lekin faqatgina bir turi yevropa zaytuni xo'jalik ahamiyatiga ega. Keyingi yillardagi tadqiqotlar zaytun mevasi nafaqat yoqimli taom, balki sog'liq manbai ham ekanligini aniqladi. Zaytun mevasiga qo'shimcha ravishda, zaytun moyi ham muhim oziga manbaidir. Uning sog'likka keltilradigan foydalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin: yurak tomirlari va arterial sog'liq uchun foydalari: zaytun mevasi va zaytun moyidagi ayrim yog' kislotalari monoto'yinmagan hisoblanadi. Monoto'yinmagan yo'g' kislotalari tarkibida xolesterin bo'lmaydi. Shu sababli zaytun moyi xolesterin miqdorini oshirmaydi, balki uni nazorat ostida saqlab turadi. Mana shu xususiyati tufayli sog'lik muammolari bilan shug'ullanuvchi (Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi) tashkilotlar aholisi arteriya qon tomirlari aterosklerozi va qandli diabet kasalligi bilan ko'p og'igan davlatlarda iste'mol qilinadigan yog' kislotalarning kamida 30%i omega-6 dan iborat bo'lishi kerakligini tavsiya qiladi. Bu zaytunning ahamiyatini yanada ko'proq oshiradi. Saraton kasalligining oldini olishi "The Archives of Internal Medicine" (Ichki tibbiyot arxivlari) nomli nashrda chop etilgan bir izlanish ko'p miqdorda monoto'yinmagan yog' istemol qiladigan ayollarda ko'krak saratonining kamroq rivojlanish xavfi tug'ilishi haqida yozadi.

Buffalo universiteti hamda Nyu-York Davlat Universiteti olimlari tomonidan olib borilgan boshqa bir izlanish esa zaytun moyi kabi o'simlik moyerida topiladigan yog', ya'ni b-sitosterol, prostatada saraton hujayralari paydo bo'lishining oldini olishda yordam berishini isbotladi. Tadqiqotchilar shunday xulosaga kelishdiki, b-sitosterol hujayralar bo'linishiga buyruq beradigan hujayraning ichki aloqa tizimini kuchaytiradi va shu yo'sinda hujayra bo'linishi boshqarib bo'lmas darajaga yetmasdan

saraton kasalligining oldini olinishi mumkin. Oksford universitetida shifokorlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot zaytun moyi ichak saratoniga qarshi himoyaviy ta'sirga ega ekanligini ko'rsatdi.

Shifokorlar zaytun moyi ichak saratoni boshlanishining oldini olish uchun oshqozon kislotasi bilan reaksiyaga kirishishini aniqladilar. Oksford universiteti tadqiqotchilari yana shu narsani aniqlashdiki, zaytun moyi safro miqdorini kamaytirib, diamin fermenti oksidazasining miqdorini ko'paytiradi va shu tariqa organizmni normal hujayra o'sishi hamda saratondan himoya qiladi.

Zaytun moyi ona sutidagi kabi muvozanatlashgan polito'yinmagan tarkibga ega. Zaytun moyi inson tanasidan olib bo'lmaydigan yog' kislotalarning yetarli manbai bo'lganligi sababli bola tanasi uchun katta ahamiyatga ega. Bola miyasi va asab sistemasining tabiiy rivojlanishiga o'z xissasini qo'shishi bois zaytun moyi mutaxassislar tomonidan homildor ayollar va onalarga istemol qilish uchun tavsiya etiladigan yagona moydir. Zaytun moyi tarkibida ona sutidagiga teng miqdorda linoleik kislota mavjud. Yog'siz sigir sutiga zaytun moyi qo'shilganda, u ona sutiga tenglashib, tabiiy ozuqa manbaiga aylanadi.

Qon bosimini tushirishi. 2000-yil 27-martda "The Archives of Internal Medicine" (Ichki tibbiyot arxivlari) nashrida chop etilgan bir izlanish yana bir bor zaytun moyining yuqori qon bosimiga nisbatan foydali ta'siriga urg'u beradi. Yuqori qon bosimini tushirish uchun ishlatiladigan doriylar zaytun barglaridan ham tayyor-lanadi. Bugungi kunda ko'pchilik olimlar zaytun moyiga asoslangan ovqatlanish tartibi ideal ozuqaviy modelni tashkil etadi, deb hisoblashishadi. Bunday fazilatga ega bo'lgan zaytun mevasi va zaytun moyi har bir kishining kundalik ovqatlanish dasturidagi asosiy tarkibi bo'lishi kerak.

FERULA FEDTSCHENCOANA K.POL ЕР УСТКИ ҚИСМИ БИОФАОЛ МОДДАЛАРИ ҲАҚИДА

Комилов Х.М., Икрамова М.Ш., Мухитдинова М.К.

Тошкент фармацевтика институти, Тошкент ш., Ўзбекистон Республикаси

Тадқиқот учун Федченко феруласи (коврак) ер устки қисми июл ойларида (гуллаган даврида) Шахристон довони, Искандар кўлига яқин тогли худуддан йигилиб, очик хавода қуритилди.

Долзарблиги. Ўзбекистонда кенг тарқалган ферула авлодига кирувчи ўсимликлар таркибида кумаринлар, флавоноидлар, сесквiterпенли спиртлар ва бошқа биофаол моддаларга бой бўлиб, ҳалқ табобатида хамда илмий амалиётда кенг қўлланилади. Шунинг учун ферулани ушбу турини тиббиётга жорий қилиш мақсадида ўрганиш долзарб масалалардан хисобланади.

Усул ва услублар. 1,0 кг қуритиб майданган Федченки ферула ўсимлигини ер устки қисмини 96% этил спирти ёрдамида экстракция килинди. Спиртли экстракт балласт моддалардан тозалаш мақсадида, қуолтирилган экстрактни сув билан 1:2 нисбатда суюлтириб экстракциялайдиган бензин билан 3 марта қайта ишланди ва ажратувчи воронкада бензинли фракцияни ажратиб олинди. Кейин ажратувчи воронкага 3 марта 100 мл дан эфир солиб, чайқатиб, эфирли фракция I ажратиб олинди. Сўнгра эфирга ўтмаган экстрактни бутанол билан қайта ишлаб, бутанолли фракция (II) ажратиб олинди.

Экстракцияни эфирли фракциясида н-гексан-этилацетат (4:1) системада қоғозли хроматография қилинганда, кумаринлардан Rf 0.31; 0.36; 0.41; 0.56 (очувчи реагент - диазореактив) лар борлиги аниқланди.

Бутанолли фракцияни Б.С.С. системасида қоғозли хроматография қилинганда флавоноидлардан Rf 0.27; 0.5; 0.75; 0.91 (очувчи реагент 1-3% AlCl₃ ни спиртдаги эритмаси) лар аниқланди.

Олинган спиртли экстрактни эфирли фракциясини ичига силикагел тўлдирилган (d-3 см, h-50 см) хроматография колонкасига солиб, экстракцион бензин билан ювилди. Диазореакция берадиган моддалар колонкадан тушмагандан кейин (фракциялар 250 мл дан йигилди) 20 фракциядан бошлаб бензинга 5% этилацетат қўшиб колонкани ювиш давом этдирилди (фракциялар 100 мл дан йигилди) 12 фракциядан Rf 0.56

сўнгра Rf 0.41 (1,2) моддалар ажратиб олинди.

Натижалар. Модда I C₉H₆O₃ эриш харорати 232-234°C, органик эритувчиларда эрийди, сувда эримайди. Rf 56 диазореактида қизғиш ранга бўялди. УФ-спектрида λ_{max} 252 ва 320 нм ларда ютилиш кузатилади. 320 нм даги ютилиш чизиги кенг ва баландлиги билан характерли. ИК-спектрида 3200-2800(OH), 1700 cm⁻¹ (C=O) α-пирон, 1620-1580 cm⁻¹ ва 1550-1450 cm⁻¹ да бензол ҳалқасини характерли чизиқлари мовжуд. Модда I ИК-спектри ва эриш хароратини таққослаш орқали унбеллиферон билан таққосланди.

Модда II C₁₀H₈O₄ эриш харорати 204-205°C, Rf 0.41, органик эритувчиларда эрийди, сувда эримайдиган рангизиши биринчидан. Ишкор эритмаси таъсирида хроматограммадаги доғни сариқ ранги кучаяди. Моддани УБ-спектри: λ_{max} 275 нм, 350 нм 2 та 6,7-диокси кумаринларга хос ютилиш чизиқлари кузатилади. ИК-спектрида эса 3400 cm⁻¹, 2950 cm⁻¹, 1710 (C=O) ва 1610, 1580, 1520 cm⁻¹ да 6-метокси-7-окси бензол ҳалқаларини ютилиш чизиқлари мовжуд. Модда II ни физик-химёвий хоссалари, эриш хароратида депресия кузатилмаслиги туфайли скополетин билан идентификация қилинди. Экстрактни бутанолли фракциясини қуолтириб адсорбент капрон кукуни билан аралаштириб курутилди. Сўнгра таркибидаги флавоноидларга хос (сифат реакция бўйича) моддаларни ўрганиш мақсадида, капрон тўлдирилган колонкага солиб, колонкани олдинига сув билан ювилади (колонка d-3 см, h-65 см). Элюат 250 мл дан йигилди ва 25 фракциягача флавоноидлар ювилади. Сўнгра колонкани турли даражадаги этил спирти билан ювилди. Таркибида 5% спирт бўлган 30 фракцияда Rf 0.75 модда III туша бошлади. Таркибида 20% этанол бўлган 40-47 фракциялардан Rf 0.91 бўлган сариқ рангли модда IV ажратиб олинди.

Модда III C₂₇H₃₀O₁₆ эриш харорати, Rf 0.75, эфир, органик эритувчиларда эримайди, сувда қайнагандан эрийди. FeCl₃ эритмаси билан кўк ранга бўялди. Цианидин реакциясини беради. H₂SO₄ 5%эритмаси билан сув хаммолиди 4 соат қиздирилганда гидролизланаб, қанд ва агликон

қисмига парчаланади. Агликонни эриш харорати 312-314°C, Rf 0.91, очувчи реактив AlCl_3 ни 1-3% спиртдаги эритмаси. Гидролиз натижасида гувохлар ёрдамида углеводлар рамноза ва глюкоза эканлиги аниқланди. Модда III ни эриш харорати, гидролиз натисида хосил бўлган моддана кверцетин билан таққосланиши, ҳамда модда III ни гувох бирикма (рутин) билан қўшиб эриш харорати аниқланганда депрессия бермаслиги, ажратиб олинган ушбу моддани рутин флавоноиди эканлигини кўрсатди.

Модда IV $\text{C}_{15}\text{H}_{10}\text{O}_7$ эриш харорати 312-314°C, Rf 0.91 FeCl_3 эритмаси билан кўк рангга киради, органик эритувчиларда эрийди, сувда эримайдиган тўқ сариқ рангли кристалл моддада. Цианидин реакциясини берди.

УФ спектри: λ_{max} 255, 269, 301, 370 нм ларда ютилиш чизиқлари бор ИК-спектри ($\text{C}=\text{O}$)

а пирон, бензол ҳалқасини (-C=C-) қўшбоғлари ва (-OH) гурухларини ютилиш чизиқлари мовжуд. Модда IV қоғозли хроматограммадаги Rf 0.91, бўялишини модда III на агликони Rf билан такқосланганда улар бир хил эканлигини кўрсатди.

Модда IV ни гувох (кверцетин) билан қўшиб эриш харорати аниқланганда депрессия бермади. Демак модда IV кверцетин флавоноиди билан идентификация қилинди.

Хулоса. Шундай қилиб Федченко феруласи ўсимлиги ер устки қисмини фитокимёвий ўрганиш натижасида ажратиб олинган моддадарда I ва II кумаринлар – умбеллиферон ва скополетин билан моддалардан III ва IV лар эса флавоноидлардан рутин ва кверцетинлар билан идентификация қилинди.

SHO'RLANGAN TUPROQLARDA SEMIZO'T (*PORTULIEA OLERACEA L.*) O'SIMLIGINI O'STIRISH VA FARMASEVTIKA SANOATIGA XOM-ASHYO YETKAZIB BERISHNING AHAMIYATI

Xalilova N.Sh., Xamrayeva N.T

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, Jizzax shaxri, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: dilshodhalilov15@gmail.com

Bugungi kunda dunyo aholisini dori-darmoniga bo'lgan talabi oshib borishi, dorivor ekinlariiga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Shu sababdan hosildorlikni kamaytiruvchi omillar va ularning oqibatlarini bartaraf etish dolzarb muommolardan biri sanaladi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 26.11.2020-yildagi PQ-4901-sonli qarori imzolandi. Ushbu qaror "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ish-lash, ularning urug'chilagini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lамини kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" bo'lib, dorivor o'simliklarga alohida e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Zero, bizning serquyosh o'lkamiz dorivor o'simliklarni ko'plab turlarini o'z bag'rida yetishtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022 – 2026-yillarda Respublikaning farmasevtika tarmog'ini jadal

rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-55-son farmoniga o'zgartirishlar kiritish haqida qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan. Mamlakatimizda sho'rangan tuproqlarda madaniy, manzarali va begona hamda yovvoyi o'simliklarning o'sishi qiyinligi aniqlangan. Shuning uchun sho'rangan tuproqlarning sifatini yaxshilash va ulardan unumli foydalanish va farmasevtika sanoatinga xom-ashyo bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biridir.

Sho'r tuproqda semizo'tni (*Portuliea oleracea L.*) ekib o'stirish juda samaralidir. Ya'ni semizo'tni (*Portuliea oleracea L.*) o'stirib undan daromad sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'p sho'rangan tuproqlarni ushbu o'simlik bilan samarali tozalash mumkin. Mamlakatimizda iqtisodiyotning yanada rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi orqali izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholining salomatlik

darajasi va farovonligini yanada oshirish davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki dori-darmon sanoati milliy iqtisodiyotning keng tarmoqli sohasi hisoblanadi. Hech kimga sir emas, bugun dunyoda dori-darmon mahsulotlarini yetishtirish masalasi global muammolardan biridir. O‘zbekiston aholisining tez ko‘payib borayotgani bilan dori-darmon mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish imkoniyatlari cheklangani o‘rtasidagi tafovut dori-darmon yetkazib berish dasturini hal etish masalasi yildan-yilga dolzarblashib borayotganligini anglatadi. Sodda qilib aytganda, dori-darmon mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sishi aholi soni va ehtiyojlarining o‘sishidan ortda qolmoqda. Shu masalalalarni inobatga olgan holda aholini dori-darmon bilan ta’minalash va sho’rlangan tuproq holatini yaxshilash maqsadida semizo’t (*Portulicea oleracea L.*) dan unumli foydalanishimiz mumkin. Semizo’t o’simligini yetishtirishdan ko’zlangan asosiy maqsadlar ushbu o’simlik tarkibining C vitaminga va Fe moddasiga boyligidadir. Ushbu o’simlik o’pka va siyidik yo’li kasalliklarida davo ekanligi va qonni tozalash, peshobni haydash, shu orqali qonni tozalash xususiyatining mavjudligi ma’lumdir. Ushbu xususiyatlaridan farmasevtika sohasida samarali foydalanishda biz semizo’tni yetkazib berishni ta’minalashimiz lozimdir. Ushbu yopiq o’simlikning barglari tiralangan va mayda jarohatlarda, kesish va jarohatlangan joyga surtilgandan keyin foydalanish uchun tavsi-

ya etiladi. Shuningdek, buyraklardagi yallig’lanish jarayonlarini bartaraf etishda shifobaxsh xususiyatlarga ega. Dorivor o’simlikdan foydalanganda uning barglaridan qaynatma tayyorlash kerak. Ovqatdan oldin (15-20 daqiqa) kuniga uch marta olinishi kerak. Bir martalik doza – osh qoshiq.

Shuni yodda tutish kerakki, mishyak semiz o’tda mavjud, biroq uning konsentratsiyasi ancha yuqori. Shu munosabat bilan, dorivor o’simlik asosida tayyorlangan dorivor preparatni ichki qabul qilish, suiste’mol qilmaslik kerak. Dozani oshirib yuborish noxush alomatlар paydo bo’lishi bilan to’la bo’ladi - quşish, diareya, shuningdek, ongning buzilishi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri qishloq xo’jaligi ishlab chiqarish taraqqiyoti ustivorligini ta’minalash hisoblanadi. Chunki hammamizni boqadigan, ozuqa beradigan soha – qishloq xo’jaligi tarmoqlaridir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo’jalik ekinlariga yaroqli yerlarni ko‘paytirib berishda semizo’t (*Portulicea oleracea L.*) dan foydalanamiz. Ushbu chora tadbirlar natijasida ko’plab o’simliklar zararlangan yerlarga qayta ekib, mo’l hosil olib, ushbu ekinlardan oziq ovqat sifatida ham ishlatishga yaroqli bo’ladi. Shuningdek, farmasevtika sanoati uchun xom-ashyo yetkazib beriladi. Bu esa o’simlikdan ko’zlangan natijani olish imkoniyatini paydo qiladi.

JIZZAX VILOYATIDAGI QIZIL KITOBGA KIRITILGAN LOLADOSHLAR (LILIACEAE) OILASI VAKILLARINING BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

Sharipova M.

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax sh., O'zbekiston Respublikasi
mohistarasharipova51@gmail.com

Tirik organizmlarning klassifikatsiyasini shakllantirishda olimlar tarixiy taraqqiyot davomida o'simliklar va hayvonlarning juda ko'p turlari qirilib ketganligini aniqlashgan. Inson tomonidan ularning qirib tashlanishi, yashash joylarining buzib tashlanishi shunga olib keldiki, natijada ularning ko'pchiligi kamyob va muhofazaga muhtoj bo'lib qoldi. TMQHI tashabbusiga ko'ra ilk bor 1966-yilda muhofaza qilinishi kerak bo'lgan turlarni o'z ichiga olgan xalqaro "Qizil kitob" nashr etildi. O'zbekistonning noyob va kamayib borayotgan o'simlik, hayvonlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1979-yil ta'sis etilgan "Qizil kitob"da o'z aksini topgan. O'zbekiston "Qizil kitob"ining o'simliklar olamiga bag'ishlangan qismi 1984-yil nashr qilingan va unga 163 tur o'simlik kiritilgan. "Qizil kitob" davriy nashr hisoblanadi. Unga kiritilgan o'simliklar va hayvon turlariga Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan kamyobligiga ko'ra 4 maqom (status) berildi:

0. yo'qolgan va yo'qolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar;

1. yo'qolib borayotgan (areali va soni kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlar;

2. kamyob, bevosita yo'qolish xavfi bo'lmasada, kichik maydonlarda kamdan kam uchraydigan (muhofazaga muhtoj) turlar;

3. muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson ta'sirida qisqarib borayotgan (sonini nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 17-iyulda PQ-3861-son qarori ijrosini ta'minlash, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi yovvoyi hayvonlar va yovvoyi tarzda o'suvchi o'simliklarning turlari (kichik turlari)ni saqlab qolish va qayta ko'paytirishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq;

1) kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlar va o'simliklarni saqlab qolish bo'yicha idoralararo komissiya tarkibiga muvofiq tasdiqlansin;

2) O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

3) O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlar qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

4) mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari – "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisi A.J. Ramatov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi raisi S.R. Xolmuradov hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi raisi B.T. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

Jizzax viloyati O'rta Osiyoning markaziy qismida, Turon tabiiy -geografik kichik o'lkasining tog'oldi va tog' oralig'i tekisliklari hududida joylashgan. O'zbekiston miqyosida viloyat mamlakatimizning deyarli markazida joylashgan bo'lib, Mirzacho'l, Qizilqum va Zarafshon tabiiy geografik o'lkalarining ma'lum bir qismlarini o'z ichiga oлади. Viloyatning umumiy maydoni 21,2 ming kv km, aholisi 1,4 mln kishidan ortiq. Viloyat hududi shartdan g'arbga 182,5 km, shimaldan janubga 175 km gacha davom etadi. Jizzax viloyati florasing flora va yuksak o'simliklarini o'rganish masalasi dolzarb hisoblanadi. Molguzar tog' tizmasining shimaliy qiyaliklari, hozirgi kunda butunlay sug'orish yerlariga o'zlashtirilgan, qo'riq yerlariga qaratilgan. Kuchli bo'linmalar, relefning murakkabligi, balandligi, iqlim sharoiti Jizzax viloyati florasing xilma-xilligidan dalolat beradi. Bu yerda O'rta Osiyoning barcha tog' va tog' oldi turlari keng tarqalgan. Lekin Jizzax viloyati O'zbekistonning aholisi quyuq bo'lgan va o'zlashtirilgan yerlar ko'p bo'lgan areal hisoblanadi. Bu yerda uy hayvonlarini ortiqcha boqilishi, boshoqli o'simliklarni ekilishi

mazkur hududning florasining o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, o‘simliklarning niyoyatda kamayishi va yer eroziyasi kuchayib bormoqda. Molguzar tog‘ tizmasining florasining asosiy qismini “Qizil kitob” ga kiritilgan turlari tashkil qiladi. Jizzax viloyatida o‘simliklarning 52 turi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Ulardan 0 kategoriyasining 1 turi (ehtimol yo‘q bo‘lib ketishi mumkin), 1 toifadagi 14 turdag (yo‘qolib ketish xavfi ostida), 2 toifadagi 29 ta (kam uchraydigan) va 3-toifadagi 8 ta tur (kamayib ketgan), Qizil kitobga kiradigan 52 turidan 46 tasi qo‘riqxonalar va milliy bog‘larda va 6 tasida muhofaza qilingan hududlarda himoya bilan ta’minlangan. Jizzax viloyatida Xalqaro Qizil

kitobga kiritilgan (IUCNRedList) o‘simliklarning 9 turi mavjud, ulardan faqat bittasi O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan - IUCNRedList.

Loladoshlar – *Liliaceae* oilasi

Loladoshlar – *Liliaceae* oilasi Yer yuzining hamma joyida uchrab, oilaga 10 turkum, 500 tur kiradi. Bizda 4 ta turkumga kiruvchi 70 taga yaqin turlari o’sadi. Loladoshlar oilasiga xos bo’lgan belgilardan biri-ularning yer ostki qismida piyozboshlarining bo’lishidir. Gullari yirik, rangli, aktinomorf, ikki jinsli, mevasi-ko’sakcha. Manzarali o‘simlik hisoblanadi. Lolalarning juda ko’p turlari “O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi” ga kiritilgan.

1-jadval

Jizzax viloyatidagi O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ga kiritilgan Loladoshlar oilasi vakillari bilan tanishamiz.

Nº	Tur, oila	Hudud	Kategoriya	Jizzax viloyatida mahalliy aholining joylashishi
1	<i>Tulipa affinis Botschantz.</i> , тюльпан родственный, қардошли лола, Нурота лоласи (<i>Liliaceae</i>)	Nurota va Zomin davlat qo‘riqxonasi	2	Nuratu va Koytash, tog‘larning quyi va o‘rta zonasini, ko‘pchilik Sayda. Turkiston (O‘riklisoy, Kulsay). Malguzar (Uvalsay, daralar. Tamerlane darvozasi, Jirtangisay). Qorakchitau (Qo‘rg‘oncha qishlog‘i yaqinida). Pistalitau (markaz qismi.)
2	<i>Tulipa dasystemon (Regel)</i> Regel, тюльпан волосистотычиночный, чангчи или тукли лола (<i>Liliaceae</i>)	Zomin davlat qo‘riqxonasi	2	Turkiston tizmasi (Kulsai, Guralashsoy, Ko‘kjar, Angirli). Malguzar (tizmaning eng yuqori nuqtasi yaqinida)
3	<i>Tulipa Korolkowii Regel</i> , тюльпан Королькова, Корольков лоласи (<i>Liliaceae</i>)	Nurota va Zomin davlat qo‘riqxonasi	2	Pistalitau, Baliklitau, Egarbelistag, Uchkulach. Nuratu va Koytash, tog‘larning quyi va o‘rta zonasini, ko‘pchilik Sayda. Malguzar (Tamerlan darasi, Karamazarsoy, Uvalsai). Turkiston tizmasi (O‘riklisoy, Sharildaksoy, Etikechuvsoy)
4	<i>Tulipa Lehmanniana Mercklin</i> , тюльпан Лемана, Леманн лоласи (<i>Liliaceae</i>)	Yoq	3	Turkiston tizmasi (Kulsai, Guralashsoy, Ko‘kjar, Angirli).
5	<i>Tulipa micheliana Th. Hoog</i> , тюльпан Михели, дилбанд лола (<i>Liliaceae</i>)	Nurota davlat qo‘riqxonasi	2	Molguzar tizmasi (Zomin)

Xulosa qilib aytganda, vatanimiz hududida xususan Jizzax viloyati hududidagi Qizil kitobga kiritilgan Loladoshlar oilasi vakillarini chuqur o‘rganish, ularning hayot faoliyati o‘rganish natijasida

ularning foydali xususiyatlarini yaxshiroq ochib berishga imkon yaratadi hamda ularning Qizil kitobga kiritilgan vakillarining sonini oshirishga yo‘l ochadi.

“FITOFRUFOL” YIG‘MASIDAN OLINGAN SUV-SPIRTLTI AJRATMA TARKIBIDAGI MINERAL ELEMENTLARNI O’RGANISH

Mullajonova M.T.¹, Komilov X.M.¹, Po’latova D.K.¹, Mullajonova T.A.²

¹Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O‘zbekiston Respublikasi

e-mail: robiya1903i@gmail.com

²Sankt-Peterburg kimyo va farmatsevtika universiteti, Sankt-Peterburg sh., Rossiya

Dolzarbliji: tanadagi bir qator minerallarning qat’iy belgilangan miqdorda mavjudligi inson salomatligini saqlashning ajralmas shartidir. Makro va mikroelementlar organizmda sintez qilinmaydi, ular oziq-ovqat orqali kiradi. Shuningdek makro va mikroelementlar dorivor o’simlik preparatlarining farmakologik ta’sirini kuchaytiradi va o’simlik tanasida ikkilamchi metabolitlarning biosintezini rag’batlantiradi. Makroelementlar-natriy, kaliy, kalsiy, fosfor, mikroelementlar- temir, sink, magniy, yod, mis, xrom, selen, ftor, marganetslar inson tanasida muhim funktsiyalarni bajaradi. Mikroskopik miqdorlarda ham ular juda samarali. Ular oqsillar, yog’lar, uglevodlar almashinuvida, organizmda oqsil sintezida, issiqlik almashinuvida, qon hosil bo’lishida, suyak hosil bo’lishida, ko’payishda, immunitet reaktsiyalarida ishtirok etadi.

Tadqiqotning maqsadi: yuqoridagilardan kelib chiqib, “Fitofrufol” yig‘masidan olingan suv-spirtlili ajratma tarkibidagi makro va mikroelementlarni o’rganish maqsad qilib olindi.

Usul va uslublar: mineral elementlarning tarkibi va miqdorini ICP-MS (induksion - bog‘langan plazmali mass- spektrometr) AT 7500 asbobbi bilan spektral tahlil usuli yordamida aniqlandi. Buning uchun 0,110 g yig‘maning analitik namunasidan issiqliq bardoshli kolbaga joylab, ustiga 10 ml konsentrangan nitrat kislota solinadi. 250-500 Vt quvvatli va 180-220°C haroratda «Milestone» mikroto’lqinli pechda kolbadagi tarkibni ajratiladi. Olingan eritmani filtrlab, 100 ml hajmdagi o‘lchov kolbasiga o‘tkaziladi va keyinchalik to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuborish uchun ICP-MS asbobining sprey-kamerasi ishlatildi. Tahlil quyidagi rejimda o‘tkazildi: plazma quvvati - 1200 Vt, integrirlash vaqt - 0.1 soniya, peristal nasosning aylanish tezligi - 0.1 ayl/son. Asbobning boshqa parametrlari sozlash jarayonida o‘rnatildi va texnik xizmat ko’rsatish oralig‘ida o‘zgarmadi. Standart sifatida multielementli 1.0 mg/l tarkibdagi standart eritmaning maqsadli komponentlari ishlatildi.


Natijalar. O‘tkazilgan tahlil natijalari asosida quyidagilar aniqlandi, o‘rganilayotgan ob’ektimiz o‘zining tarkibida 61ta kimyoviy elementlarni saqlaydi. Makroelementlardan eng ko‘p miqdorda K, P, Na, Mg, Ca, Fe elementlari saqlanishi aniqlandi. Mikro elementlardan bor, marganets mutloq ustunlikni ko‘rsatgan bo‘lsada Zn, Co, Ti, Cu, Sr, Ba, Rb elementlari ham e’tiborga molik darajadagi konsentratsiyaga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosalar: “Fitofrufol” yig‘masidan olingan suv-spirtlili ajratmasi tarkibidagi makroelementlar tarkibini quyidagicha oshib borish tartibida keltirish mumkin:




Olingan natijalarga ko‘ra suv-spirtlili ajratma tarkibidagi mikro va ultramikro-elementlar tarkibini shartli ravishda miqdoriga ko‘ra guruhlarga bo‘lib, quyidagicha oshib borish tarkibida ko‘rish mumkin:


konsentratsiyasi 2.30-260000 mkg/l oralig‘idiagi:



konsentratsiyasi 0.15-0.880 mkg/l oralig‘ida:



konsentratsiyasi 0.05-0.071 mkg/l oralig‘ida:



Suv-spirtlili ajratma tarkibida hayot uchun kerakli elementlar, xususan temir (330 mkg/l), sink (2700 mkg/l), kaliy (1900 mkg/l), natriy (13000 mkg/l), magniy (260000 mkg/l), kalsiy (1700 mkg/l), xrom (350 mkg/l), v.a bu narsa o‘rganilayotgan ajratmaning biologik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Foydali mikro- va makro-elementlar bilan bir qatorda preparatda toksik og‘ir metallar - kadmiy (1.70 mkg/l), qo‘rg‘oshin (11 mkg/l) mavjud bo‘lib va simob esa umuman aniqlanmadи va bu o‘simlik asosida olingan preparatlarga qo‘yilgan sanitariya me’yorlarida ruxsat etilgan konsentratsiya miqdoridan oshib ketmaydi.

OBTAINING AND STUDYING THE LIPOPHILIC FRACTION OF THE FRUITS AND HERB OF ANISE

Umarov U.A.

Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent city, Republic of Uzbekistan

e-mail: ulugbekumarov08@gmail.com

Topicality. Currently, herbal medicines are preferred because they have less toxicity. One of the plants that has been known to mankind since ancient times is the common anise (*Pimpinella anisum L.*). This is an annual plant that belongs to the umbrella family (*Apiaceae*). It is grown in Russia, Spain, Greece, India and Syria. Its fruits and essential oil are used in pharmaceuticals. Fruit harvesting is carried out after 50% of the umbrellas have browned. The fruits are rich in essential oil (up to 6%), the predominant substance of which is trans-anethole (86-93%). Essential oil is part of medicines used for diseases of the upper respiratory tract and gastrointestinal tract. The fruits in combination with other medicinal plants are found in extemporeous prescriptions for the treatment of constipation. There is no data on the use and study of the chemical composition of the herb. Among the biologically active substances of anise, lipophilic substances such as chlorophylls and carotenoids play a significant role. Because they participate in complex chemical processes in plants, which include photosynthesis. They also have a wide range of pharmacological actions. For example, chlorophyll enhances hematopoietic processes and has an antimicrobial and tonic effect. To date, 600 different carotenoids are already known. Many carotenoids have anticarcinogenic, antimutagenic, and immunomodulatory effects. It should be noted that there are few sources for studying the lipophilic fraction of anise fruits and herb.

Aim. Based on the above, obtaining and studying the lipophilic fraction became the aim of this study. Fruits and herb in different phases of the growing season of common anise were taken as the object of study.

Objects and methods. The lipophilic fraction was obtained from anise fruits and herb in a Soxhlet apparatus by exhaustively defatting the raw materials with chloroform in a raw material-extractant ratio (1:20) according to a standard method. The qualitative composition of the lipophilic fraction from the herb and fruits was studied in by one-dimensional thin layer chromatography on Silufol UV 254 plates in a hexane-acetone solvent system

(6:2). Substances were identified by their characteristic color in visible and UV (ultraviolet) light and after treatment with appropriate chromogenic reagents. The localization of chlorophylls in the chromatogram was determined by the characteristic dark green color of the spots in visible light and by bright red fluorescence in UV light. Coumarins showed blue fluorescence under UV light and an orange color after treatment with diazoreagent. After treatment with a 10% solution of phosphomolybdc acid in ethanol, the spots turned dark blue on a green background, and after treating the chromatogram with a 2% solution of n-dimethylaminobenzaldehyde mixed with hydrochloric acid, followed by drying the chromatogram at 80-90°C for 5 minutes, they became pink-lilac coloring, which allowed them to be classified as carotenoids. Flavonoids were identified by yellow fluorescence under UV light. The content of individual pigments was determined using the three-wave method; the optical density of the resulting solution was determined on an SF-46 spectrophotometer at wavelengths of 440 nm (carotenoids), 665 nm (chlorophyll a) and 649 nm (chlorophyll b), in a cuvette with a layer thickness of 10 mm. The concentration of chlorophylls a and b in the resulting solution (C, mg/l) was calculated using the Wintermans and De Mots equation, carotenoids - using the Wettstein equation.

Results. It was found that the yield of the lipophilic fraction is higher in fruits (7%) than in herb (1.5%). As a result of the study, 14 substances were found in the lipophilic fraction of anise herb, of which 3 chlorophylls, 1 flavonoid, 8 carotenoids, 2 coumarins. The fruits contained 5 chlorophylls, 1 flavonoid, 9 carotenoids, 1 coumarin. As a result of the studies, it was established that in the anise herb the total content of chlorophylls is 1.344 ± 0.01 mg/l, and carotenoids - 0.196 ± 0.02 mg/l, in the fruits of chlorophylls 1.432 ± 0.02 mg/l, carotenoids 0.225 ± 0.05 mg/l.

Conclusions. As the results show, anise fruits can be used as a source of lipophilic substances for the development of promising medicines with various pharmacological effects based on them.

O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI RUKKOLA (*ERUCA SATIVA MILL.*) O'SIMLIGINING MIKROSKOPIK TAXLILI

Qo'shoqova M.S., Farmanova N.T.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

e-mail: muhlisamarufova19@gmail.com


Dolzarbli. Rukkola (*Eruca sativa Mill.*) o'simligi arugula, indau, roket kabi nomlar bilan mashxur hisoblanadi. Uning vatani O'rta yer dengizi bo'lib, mahalliy aholi oziq ovqat sifatida iste'mol qilishgan. Turkiya, Livan, Suriyada esa bepushtlik, ovqat hazm qilish va teri kasalliklariga qarshi vosita sifatida qo'llanilgan. Rukkola o'simligi Karamdoshlar (Brassicaceae) oilasiga mansub, bir yillik ikki pallali o'simlik hisoblanadi.

Hozirgi kunda rukkola hududimizda oziq ovqat sanoatida keng ishlatiladi, adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra xalq tabobatida oshqozon yara kasalliklarida, teri kasalliklarida, yuqori nafas yo'llari kasalliklarida foydalanilamoqda.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston hududida o'suvchi ekma kashnich mikroskopik tuzilishini tahlil qilish.

Usullar va uslublar. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent viloyatining ma'lum hududida o'stirilgan ekma rukkola o'simligining barglari hisoblanadi. Mahsulot 10-12 sm ga yetganda yig'ib olinadi. Quritish uchun toza va shamol o'tib turadigan maxsus stelajlarga bitadan yoyib chiqildi. Maxsulotni ishqor eritmasida qaynatildi va ochuvchi reaktiv tomizilib barg plastinkasining tuzilishi mikroskop ostida ko'rildi.

Natijalar. Mikroskopik tahlillar shuni ko'rsatdi, rukola bargining yuqori va pastki epidermisida karamdoshlar oilasiga xos bo'lgan 3 ta epidermis hujayra bilan o'ralga ustitsalardan iborat. Bargning har bir bo'rtib chiqgan joyida o'tkir uchli, keng asosli, oddiy tuklari bargga yopishmagan holda joylashgan (1-rasm).



1-Rasm. *Eruca sativa* bargi epidermisining anotamik tuzilishi.

A - ustitsa, B - oddiy tuklar,
C - bargning asos qismi

Xulosa. O'simlik barglari harakterli anatomic belgilari aniqlandi. Tadqiqot natijasida bargda ko'plab ustitsalar, oddiy tuklar, suv yo'llari ko'rildi.

Olingan natijalar ushbu turdag'i xom ashyo uchun me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda bargning chinligi va sifatini aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

**O'ZBEKISTONDA O'SADIGAN Q'OZIQULOQ (*PHLOMIS THAPSOIDES BGE*)
YER USTKI QISMI TARKIBIDAGI SUVDA ERIYDIGAN VITAMINLARNI
O'RGANISHGA DOIR**

Orifjonova G.Q., Mullajonova M.T.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
e-mail: gulnozaorifjonovagmail.com

Dolzarbli: vitaminlarning yetishmasligi yoki bo'imasligi metabolik kasalliklarga, jismoniy va aqliy faoliyatning pasayishiga, tananing tez charhashiga olib keladi. Shu bilan birga, vitaminlar yetishmasligi tufayli immun tizimining patogen omillar ta'siriga qarshi turish qobiliyati pasayadi va turli patologik holatlar va surunkali kasalliklarning rivojlanishiga moyillik kuchayadi. Ularning metabolik jarayonlarda keng ishtirok etishi ularni turli kasalliklarning oldini olish va davolashda qo'llash, boshqa terapevtik vositalarning ta'sirini to'ldirish, kuchaytirish va ba'zi hollarda yaxshilash imkonini beradi. Bunda ularning roli juda muhim bo'lib, avvalo ular metabolizmni normallashtirish uchun ishlatiladi.

Tadqiqotning maqsadi: yuqoridagilarni inobatga olib Qo'ziquloq yer ustki qismining kimyoviy tarkibini o'rganishni davom ettirib, suvda eriydigan vitaminlarni aniqlash.

Usul va uslublar: tadqiqot ob'ekti sifatida Jizzax viloyatidan gullash davrida yig'ib olingan va quritilgan qo'ziquloq yer ustki qismidan foydalaniildi. Tahlil "Dorivor o'simlik xom ashyosi va dorivor o'simlik preparatlaridan namuna olish" ko'rsatmalariga muvofiq tanlangan xom ashyoning o'r-

acha namunalari bo'yicha o'tkazildi. Vitaminlarni aniqlash gradient nasosli, termostatik kolonka va o'zgaruvchan to'lqin uzunligiga ega. UB detektorlari bilan jihozlangan Shimadzu HPLC-10 VP xromatografida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida amalga oshirildi.

Xromatografiya shartlari:

